

## „BOBURNOMA”DA HINDISTON ETNOGRAFIYASI

*Mirsaidova Ozoda*

*TDSHU Antropologiya va Etnologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub „Boburnoma” asaridagi hind o'lkasini etnografdiyasi, chuqur yoritib bergani, xalqlari haqida, turmush tarzi haqida ancha qimmatli ma'lumotlar yozilgani, tabiatiga tariflar berilgani haqida keng muhokama qilinadi va xulosalar chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** Bobur, Hindiston, etnografiya, xalq, Boburnoma, madaniy hayot.

Boburnoma asari dastlab „Vaqoye” (Voqealar) deb atalgan. Keyinroq „Voqeoti Boburiy”, „Voqeanoma”, „Tuzuki Boburiy” nomlarini olgan. „Boburnoma” nomi bilan shuhrat qozongan.<sup>1</sup>

Bobur Kobuld a ekanligidayoq Hindistonga qiziqqan. Bu qiziqish esa unga tinchlik bermagan va u keyinchalik Hindistonni ishg'ol etgan.

Hindistonda Bobur podshoh sal kam besh yil, aniqrog'i to'rt yilu sakkiz oy umr ko'rdi, shundan to'rt yil voqealari «Boburnoma»da o'z aksini topdi. Biz bu voqealardan Hindistonga uyushtirilgan beshinchi yurish tafsilotlari, mamlakat tarixi, geografiyasi, siyosiy va madaniy hayoti, hayvonot va nabotot tavsifi, ulkan davlat tuzish jarayoni, janglar, obodonlashtirish ishlarining amalga oshirilishi, to'g'risida boy ma'lumotlar olamiz<sup>2</sup>

Boburning „Boburnoma”da Hindiston haqida bergan muhim ma'lumotlari Hindiston xalqining hayoti, turmush tarzi, tabiati, yerlari, iqlimi, tabiat manzarasi, Hindiston daryolari, hayvonlar va qushlar, mevalar, gullari haqida qimmatli ma'lumotlar yozadi. Bobur: „Hindiston ulkan mamlakat. Unda oltin va kumush ko'p. Bu yerning iqlimi yomg'irli kunlarda yaxshi, Hindistonda qishloqlar ko'pligini ko'rib hayron bo'ldim” deb ham aytib o'tgan.

„Bobur „Boburnoma”da hindistonliklar unga ochiqdan ochiq adovat ko'rsatdilar, qo'shini qayerga bormasin, hindistonliklar uylarini yondirib, quduqlariga zahar solib qo'ydilar” deb yozgan. Bobur bu xalqni bosib olishi oson bo'lmagan. Boburnomada shuningdek, Dehli, Gujarat, Malva va ikkita hindu davlati Vijayanagar va Mevarni ham eslatib o'tgan.

Etnografiya bilan hamkorlikda etnobotanika va etnozologiya kabi sohalar faoliyat ko'rsatadi. „Boburnoma”da XVI asr boshlaridagi Hindistonning o'simlik dunyosi haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud. Shu bois, Bobur tuzgan mevali va manzarali o'simliklar ro'yxati bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. U bir qator mahalliy manzarali o'simliklarning go'zalligini batafsil bayon qiladi. Xushbo'y fors atirgulini Hindistonga birinchi bo'lib Bobur olib kelgan.

Boburnoma”da qushlar haqida ham qiziq ma'lumotlar ko'p. Masalan, to'tilarning sakkiz turi haqida hikoya qilinadi. Muallifning aytishicha, ularning uch turiga gapirishni o'rgatish mumkin. Yana bir turi haqida „ular gapirishni ham bilar emish”, deya xabar beradi. Olim, shuningdek,

<sup>1</sup> „ABITURIYENT-2013” turkumi ostida nashr etilgan qo'llanma. „SHARQ” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2013

<sup>2</sup> Mashrafov, Zoqirjon. Madraimov, Abdumajid. Temuriy va Boburiylar san'ati / Bobur xalqaro jamoat fondi. Mas'ul muharrir V. Ra'xmonov, T.: «Sharq», 2022. 384 b + zarvaraq.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

Hindistonda uchraydigan maymun, kiyik turlari, yovvoyi ho'kiz hamda bizning yurtlarda uchramaydigan nilagov (ko'kho'kiz), ko'tahpoy (kaltaoyoq), nuvl degan jonivorlar haqida ham ma'lumot beradi. Nuvlni "Qunduzdan biroz kichikroq. U daraxtlarga chiqadi", deb ta'riflaydi.

Hindistonda daraxtda yashaydigan bir sichqon turi bo'lib, pastga tushmoqchi bo'lsa, hayratlanarli tarzda tez va chaqqon sakrar ekan. Bu jonivorni gilahriy deb atashadi, deydi muallif. Muallifni ajablantirgan va qiziqtirib qo'ygan jonivordlardan biri – karkidon. U xuddi fil kabi ulkan jonivor, deb yozadi u. "Kattaligi uchta ho'kizga teng keladi". Ammo bunday ma'lumotlarni keltirishda, o'z odatiga ko'ra, hech qachon faqat eshitganlariga tayanmaydi, balki o'zi ko'rgan, kuzatgan, tekshirganlariga suyanib, so'z yuritadi. Masalan, ayrimlar unga karkidon filni shoxi bilan ko'taradi, deyishadi. Bobur bu gapga ishonmaydi. To'g'ri, karkidon juda kuchli hayvon, fildan ko'ra yirtqichroq ham, lekin, filni shoxi bilan ko'taradi, degan gaplar unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak, deya lofchilarning gapiga qo'shilmasligini aytadi. (Haqiqatan ham, fil bilan karkidon orasida farq katta. Eng yirik filning og'irligi 7 tonnagacha, karkidonniki esa 2,5 tonnagacha bo'ladi). Umuman, Bobur ushbu ikki hayvonni ko'p o'rganib, ularni o'zaro solishtirgan. Aniqlashicha, fil yuvvoshroq va qo'lga tez o'rganadi. Undan xo'jalikda, harbiy ishlarda foydalanish mumkin. Faqat ancha ko'p – ikki tuyaning yemishini yeydi. U "katta va tezoqar suvlardan og'ir yukni osonlik bilan ko'tarib o'ta oladi". Karkidon esa "fildek itoatkor va bo'ysunuvchan emas", hatto picha tajovuzkor ham.

Bobur har bir geografik nomni, uni qayerda joylashtirilganligidan, qat'iy nazar sinchiklab o'rgangan, joy nomining yasalishi, tarixiy asosi va kelib chiqishini aniq ilmiy ma'lumotlar bilan dalilab, ilmiy xulosalar chiqargan.

U., Boburnoma'da Hindiston elining ko'pragi kofir bo'ladi. Hind eli kofirni hindu derlar. Hindular aksar tanosuxiy bo'ladi. Bobur bu orqali hind xalqini boshqa dinga e'tiqod qilishini, tanosuxiy "atamasi esa ruhning ko'chib yurishi haqidagi diniy ta'limot, shunday qilib hindlar ruhning bir jism (o'lik)dan boshqa jism (o'simlik, hayvon, inson)ga o'tishiga ishonishini yozgan.

Shuningdek, Boburnoma to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan shoh asardir. Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda.

Bobur hindlar muomalada ishlatgan o'lchov birliklari haqida ham qimmatli ma'lumotlar qoldirdi. Hind eli adadni ham xo'b tayin qilib turlar: yuz mingni lak derlar, yuz lakni kurur derlar. Yuz kururni arb derlar. Yuz arbni karb, yuz karbni nil, yuz nilni padam, yuz padamni song. Bu adadlarning tayini Hindiston molining ko'plugining dalilidir.

"Hindiston hayvonlaridan fillar mashhurdir, ularni "haatiy" deyiladi, Kalpiy viloyatining sarhadlarida bo'lar. Sharqqa borgan sari sahroyi fillar ko'payadi" deydi muallif, "...u yerlardan fil tutib keltiradilar Kurara va Manikpurdin 30- 40 mavzellarini ishi fil tutmoqdir. Filning yemog'i ham, ichmog'i ham xartumidadir. Filning ahamiyati bu mamlakatda juda qadri va cheriklar harbiy maqsadda foydalanishadi, bahosi juda qimmat". "Yana bir jonivor bor" deydi Bobur Mirzo, "...bu jonivor Karkdir (karkidon) u kuchda filga teng keladi, ko'pincha g'olib bo'ladi. Uning burnining ustida shoxi bor. Ular Hindistonning Parshovar va Xashnag'ar changalzorlarida bo'ladi. Ular yana Hindistonning Saru daryosi yoqalarida ham bo'ladi. Yana Hindistonning tog'larida kichikroq kiyik va qo'chqor bo'lur deydi, ularning go'sht umshoq va bisyor bo'ladi. Hayvonlardan maymun bor, uning bir turi borki lo'lilar o'yin o'rgatarlar. Ularning tuki sariq, yuzlari oqdir"<sup>3</sup>

<sup>3</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent-2008.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

Shuningdek, u Hindistonda keng tarqalgan sug'orish tizimlarini batafsil tasvirlab beradi. Jelum yaqinidagi bog'larda Bobur birinchi bo'lib fors g'ildiragini ko'radi. Bu haqda u shunday yozadi: "Biz suv olish uchun mo'ljallangan chelakli g'ildirakni ko'rdik va suv olishlariga buyruq berdik. Xizmatkorlar ishga kirishdilar. Qayta-qayta suv olishni buyurdik. Yosh daraxtlarga suv chelaklar va g'ildiraklar yordamida beriladi. Daraxtlar ikki yoki uch yil davomida doimiy ravishda sug'oriladi. Shuningdek, ayrim sabzavotlar ham shunday holatda doimiy sug'oriladi".

Shuningdek, Hindistonda qish fasli bo'lmaydi. Bu borada ham malumotlar keltirib o'tilgan. Hindustonda uch fasl bo'lur, to'rt oyi yozdur, to'rt oyi pashkol, to'rt oyi qish. Oylarning ibtidosi hiloliy oylarning istiqbolidur. Har uch yilda bir oyni pashkol oylariga ziyoda qilurlar. Yana uch yilda qish oylariga ziyoda qilurlar. Yana uch yilda yoz oylariga ziyoda qilurlar. Pashqol so'zi ham faslga ifodalab, bunga yomg'irlik oylar kiradi. Savan, bodun, quvor, pashqol: muvofiqi: saraton va asad va sunbula va mezon.

«Boburnoma»da hali yechimini kutayotgan, aniqlanishi kerak bo'lgan geografik joy nomlari, ayniqsa shaharlar va qal'alarining toponimlari, qavm, elat, qabila, urug'-aymoq va millatlar etimologiyasiga oid bahsli bo'lgan atama va tushunchalar mavjud.

Boburiylar zamonida Lal Qal'ada podshohlar oilasi taom yeydigan maxsus oshxona bo'lgan. Taom tayyorlash, dasturxonaga tortish va iste'mol qilish o'ziga xos usulda amalga oshirilganligi haqida ham ajoyib ma'lumotlar bor. Boburshoh hazratlari va ul zotning zurriyodlari hindlarning urf-odatlariga ehtirom bilan qaragan holda, mahalliy xalq uchun muqaddas bo'lgan qoramol go'shti va boshqa ibodatga kiritilgan o'simliklardan taom tayyorlashni ta'qiqlaganlar, bu esa boburiyzodalarga nisbatan hind xalqining hurmatini oshirgan.

Taomni forsiy zabon oshpaz qizu ayollar pishirgan, das-turxonaga tortish vazifasi hind qizlariga topshirilgan. Podshoh oilasi dasturxonidagi har bir taomlarni oldin turkiy qizlar tatib ko'rgan. Bu bilan Boburshoh o'z tasarrufidagi barcha millatlarga hurmat-ehtiromini bildirgan. Bu hislat Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlaridan avlodlariga meros sifatida o'tib kelganligini saroy yozuvchilari bir necha bor o'z asarlarida ta'kidlab o'tganlar.

Ayniqsa, Boburning Hindistondagi turli xil millatlar, dinlar va qadriyatlar uyg'unlashib ketgan mamlakatni boshqarish bobidagi qarashlari, faoliyati, hozirgi kunda mamlakatimizda davlatchilikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida alohida tadqiq qilishga sazovor mavzudir. Boburning etnografiyaga qo'shgan hissasi tahsinga loyiqdir. Boburning bosh ilmiy-ma'naviy merosini, xususan, uning siyosiy-huquqiy qarashlarini milliy istiqloq mafkurasi talablaridan kelib chiqqan holda o'rganish o'zining ahamiyatini yo'qotmaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent-2008.
2. Машрабов, Зокиржон. Мадраимов, Абдумажид. Темурий ва Бобурийлар санъати / Бобур халқаро жамоат фонди. Масъул муҳаррир В.Раҳмонов, Т.: «Sharq», 2022. 384 6 + зарварак.
3. „Abituriyent-2013“ turkumi ostida nashr etilgan qo'llanma. „SHARQ“ nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.
4. .Hasan Qudratullayev, professor "BOBURNOMA" ASRORI KALITI "Marifat" gazetasi 2008.
5. <https://www.agro.uz/11-045361508/>.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

6. <https://www.savol-javob.com/amir-temur-va-temuriylar-davri-madaniyati/>.
7. <https://m.bharatdiscovery.org/india/%E0%A4%AC%E0%A4%BE%E0%A4%AC%E0%A4%B0%E0%A4%A8%E0%A4%BE%E0%A4%AE%E0%A4%BE>.